



MOVAROUNNAHR DIYORIDAN YETISHIB CHIQQAN BUYUK MUFASSIRLAR

Abdullayev Me'rojiddin Kamoliddin O'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik mutaxassisligi 2-kurs magistranti

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p2-53>

ARTICLE INFO

Received: 11th February 2023

Accepted: 20th February 2023

Online: 21th February 2023

KEY WORDS

Buxoriy, Abul Barakot Nasafiy, Moturidiy, tafsir, fiqh, kalom, Ta'vilot al-Qur'on, Tafsir an-Nasafiy.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Movarounnahrda yetishib chiqqan buyuk mufassir, faqih, muhaddis olimlarning Qur'onni tafsir qilishdagi uslublari va ularning boshqa tafsirlardan farqli jihatlari haqida ma'lumot berilgan. Movarounnahrda ilmiy, madaniy va iqtisodiy holat tanazzulga tushib qolgan paytda Movarounnahrlik va Xurosonlik mufassirlar, fidoiy olimlar bilan tafsir ilmini jonlantirishga va qayta tiklashga xizmat qilgan. Bu tafsirlar doirasida hozirgi kunda ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda, bosqichma-bosqich o'zbek tiliga tarjima qilinmoqda.

Har zamon, makon, xalq, millat, elat, mazhab va yo'nalishning o'z tafsiri bor. Bugungi kunda dunyoning ayniqsa musulmon olamining Qur'oni karimga bo'lgan cheksiz qiziqishi ulamolarni doimo uni o'rganishga uni tafsirini yozishga chorlab kelgan. Markaziy Osiyoda ham xususan, qadimgi shaharlar Movarounnahr, Xuroson, Buxoro, Samarqand, Nasaf, Termiz, Koson, Farg'ona, Marv, Gurganch va boshqa shaharlarda barcha ilmlar jumladan islom ilmlarida ham jahonga dong taratgan buyuk allomalar yetishib chiqqan.

Alloh taolo Movarounnahr va Xuroson diyorlarini ham islom nuri bilan munavvar qildi. Ma'lumki bu diyorning tub aholisi islomdan avval ba'zi bir ilm va madaniyat turlaridan xabardor edilar. Ushbu sababga ko'ra, alloma Ibn Xoldun ta'kidlaganidek, ularda islom ilmlarini qabul qilish va rivojlantirishga loyiq malaka bor edi. Bir oz vaqt o'tishi bilan muhaddislar madrasasi paydo bo'ldi va ular Qur'on tafsiri to'g'risidagi asarlarni jamlagan birinchi kishilar deb e'tirof qilindilar. Ularning sardori imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy edilar. "Kashfi Zunun" nomli kitobda zikr qilinishicha u zot "Tafsiri kabir" nomli alohida bir tafsir kitobi ta'lif qilgan ekanlar, lekin afsuski bu kitob hozirgi paytgacha yetib kelmagan. Shunga qaramasdan, Imom Buxoriy tafsir ilmida ulkan asar qoldirib ketganlar. Imom Buxoriyning "Jome' as-Sahih" kitoblarida Qur'oni karim tafsiriga oid mingdan ziyod hadis mavjud. Buni qarangi Movarounnahr mintaqasidan ham buyuk mufassirlar yetishib chiqqan va o'z asarlari bilan tanilganlar.

Yuqorida ta'kidlanganidek bu mintaqadan bir qator yirik va taniqli mufassirlar o'zlarining mukammal tarzda yozilgan asarlari xususan, Alloh taoloning muqaddas kalomi, musulmon bo'lgan insonlarni musataqim yo'l bilan jannat tomon yo'llovchi Qur'oni karimga



yoʻzgan tafsirlari bilan boshqa millat ulamolari huzurida hurmat eʼtibor qozonganlar. Quyida Movarounnahrda yashab ijod qilgan ana shunday mufasssirlar hayoti va ijodlari haqida soʻz yuritiladi.

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Juʼfiy hijratning 810 milodiy (194 hijriy) yili Buxoroda tavallud topganlar. Imom Buxoriy muhaddislar peshvosi sanaladi. Yigirmadan ortiq kitoblar muallifidir. “Kashf az-Zunun” kitobida berilgan maʼlumotga qaraganda Imom Buxoriy Qurʼoni karim tafsiri borasida ham barakali ish qilgan. Bu tafsir “At-Tafsir al-Kabir” deb nomlangan. Lekin afsuski, bu tafsir hozirgi paytgacha yetib kelmagan.

Shunga qaramasdan Imom Buxoriy “Al-Jomeʼ as-Sahih” kitobining 3-jildida Qurʼon oyatlarining tafsiri haqida mingdan ortiq hadislar tafsirini mazkur kitobga joylagan. “Al-Jomeʼ as-Sahih” kitobining 3-jildi 149-betdan “Bismillahir rohmanir rohiym Qurʼon tafsiri kitobi” deb boshlangan va har bir mavzu alohida bob qilingan.

Har bir bob “Alloh taoloning qavli” jumlasini bilan boshlanib, shu oyatga munosib hadislar rivoyat qilingan va 384-betda “Dilingizni (hayolingizni) bir joyga yigʻib Qurʼon oʻqingiz!” degan bob bilan yakunlanadi. Hadis kitobining 3-jildidagi Qurʼon kitobi tadqiqot muallifi taomonidan oʻzbek tiliga tarjima qilingan. Imom Buxoriy Samarqandga safar chogʻida 870 milodiy (256 hijriy) 62 yoshlarida vafot etadilar.

2. Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad al-Moturidiy 870 milodiy (233-240 hijriy) yillar orasida Samarqandning Moturid qishlogʻida tavallud topgan. Musulmonlar orasida “Imom al-huda, musahhah aqidat al-muslimiyn” nomlari bilan mashhur, sunniylik yoʻnalishining moturidiya aqida maktabining asoschisi, buyuk mutakallimdir.

Moturidiy Abu Hanifa izdoshlaridan boʻlib, Abu Nasr al-Iyoziy, Abu Bakr Ahmad al-Juzjoniy, Muhammad ibn Muqotil ar-Roziy kabi ustozlar qoʻlida taʼlim olgan. Moturidiydan juda koʻp asar qolgan. Moturidiy oʻzining tafsiri “Kitob Taʼvilot ahli Sunna” yoki “Kitob Taʼvilot al-Qurʼon” nomli asarida ilmi kalom ulamolari yoʻlidan borgan va mazhabini quvvatlab tafsir qilgan. Uning asari Movarounnahrda ilk yaratilgan tafsir asarlaridandir.

Moturidiyning tafsiri undan avvalgi tafsirlardan uslubi bilan farq qiladi. Masalan boshqa tafsirlarda mufasssirlar sahobalardan keyingi zamon olimlarining soʻzlarini tafsir deb boʻlmaydi zero ular qanday fikr bildirsalar ham koʻrganlarini emas aqlari yetganini soʻzlaydilar. Bu oʻzboshimchalik boʻlib Muhammad (s.a.v): “Kimiki Qurʼonni oʻzboshimchalik bilan tafsir qilsa u oʻziga doʻzahdan joy tayyorlab qoʻygandir”, deganlar. Demak Moturidiy tafsir qilishda yangicha uslubga yondashib yuksak mahoratlar bilan faoliyat olib borgan.

Abu Mansur Moturidiy 944-945 (333 hijriy) yilda vafot etganlar. U kishi Samarqand viloyati Chelak qishlogʻining Chokardiza qabristoniga dafn etilganlar.

3. Abu Lays ibn Muhammad ibn Ibrohim as-Samarqandiy al-faqih, al-Hanafiy boʻlib, “Imom al-huda” laqabi bilan mashhurdir. Abu Laysning eng yaxshi muallifotlaridan “Bahr al-Ulum” nomli tafsiri “Kashf az-zunun” kitobining muallifi Abu Lays as-Samarqandiyning “Bahr al-ulum” tafsiri juda mashhur ajoyib kitobdir: deb yozadi. Bu tafsirning uch jildi qoʻlyozma nusxasi Misr kutubxonasida, yana ikki nusxa qoʻlyozmasi Al-Azhar kutubxonasida saqlanmoqda. U kishining tugʻilgan yillari toʻgʻrisida aniq maʼlumotlar keltirilmagan.

Abu Laysning tafsiri tom maʼnodagi naqliy tafsirdir. Har bir oyatning tafsirida sahobalar va tobeʼiynlar rivoyatlaridan keng foydalangan biroq roviylar sanadi tark etilgan. Shu bilan birga olimlarning gaplariga va rivoyatlardagi ixtiloflarga hech qanday munosabat bildirmaydi.



Mufassir o'z tafsirida naqliy tafsirdan foydalanish bilan birga, aqliy jahatini ham tark etmagan. Umuman olganda kitob juda qimmatli, foydali, naqliy va aqliy mazmunlarni o'zida mujassam etgan bebaho asardir.

U kishining vafotlarini olimlar 986 milodiy (373 yoki 375 hijriy) yil deya tahmin qilishgan.

4. Az-Zamaxshariy Abul Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad al-Xorazmiy al-Imom al-Hanafiy bo'lib, "Jorulloh" laqabi bilan mashhur bo'lganlar. U kishi 1075 milodiy (467 hijriy) yilda Xorazmning Maxshar qishlog'ida tug'ilgan. Uning birinchi ustozlari zamonasining ilmiy kishilardan bo'lgan o'z otasidir. Keyinchalik u ilm darajasini Buxoroda oshirgan. Bog'dodga kelib buyuk ustozlar qo'lida ta'lim olgan. Xurosonga bir necha marta borgan. Qayerga bormasin atrofiga odamlar yig'ilib, unga shogird bo'lishgan. Kim bilan munozara qilmasin, u taslim bo'lib, az-Zamaxshariyning ilmini e'tirof etgan. Shunday qilib uning ovozi butun olamga yoyildi va zamonasining yagona allomasiga aylandi.

Az-Zamaxshariyning turli ilm sohalarida o'ta xassoslik bilan ta'lif etgan asarlari bor. Uning "Al-Kashshof" tafsiri juda mashhur tafsirlardan biri hisoblanadi. Unda az-Zamaxshariyning Muhammad (s.a.v) dan va boshqa salaf ulamolardan juda ko'p oyatlar tafsirini rivoyat qilgan va unga e'tilof qilgan. Az-Zamaxshariy mazhabida Imomi A'zam yo'lini tanlangan bo'lsada, aqidada mo'taziliy bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjuddir.

"Al-Kashshof" tafsiri e'tizoliy aqidaga muvofiq yozilgan bo'lsa ham, juda yuqori qimmatga ega bo'lgan tafsir hisoblanadi. Qur'oni karimning mo'jazlik siri, namozning go'zalligi va balog'atdagi yuksak darajasi muallif tomonidan ochib berilgan. Buning sababi Zamaxshariyning juda ko'p ilm sohalarini hususan arab lug'atining jozibakorligi, ash'orlar, balog'at, bayon, e'rob, adab ilmlarini mukammal bilganligidir.

Alloma Tojiddin as-Subkiy o'zining "Mu'id an ni'am va mubidan-niqam" kitobida "Bilingki, albatta "Al-Kashshof" tafsiri ulug' kitobdir uning muallifi o'z fanida imomdir" deb yozadi.

Xulosa qilib aytganda, tafsir sohasining ulug' shayxi Jorulloh az-Zamaxshariyning "Al-Kashshof" tafsiri islom olamidagi barsa tafsirlardan yozilish uslubi balog'at va fasohat nuqtai nazaridan oliy darajadagi tafsirdir. Az-Zamaxshariy singari ulug' allomalarning e'tiborli tafsirlardan e'tiqodiy adashuvlarni nazardan qochirmagan holda ilmiy-tanqidiy va qiyosiy jihatdan jiddiy o'rganish va kerakli o'rinlarda ulardan istifoda etish foydadan holi bo'lmaydi.

Haqiqatdan ham Az-Zamaxshariy mufasssarga zarur bo'lgan barcha vosillarni jamlab, o'zining ulug' tafsirini yozib, tugatib, odamlar e'tiboriga havola qildi. Az-Zamaxshariy o'zining bu tafsiri barcha fazilatlarini jamlagan asar bo'lganini barcha olimlar huzurida husni qabulga munosib ko'rilganini bilgach Allohning bunday ne'mati va inoyatiga shukrona keltirib ushbu g'azaldni yozadi:

Dunyoda tafsirlar sonu sanoqsiz,

Ular orasida Kashshof safodir.

Agar sen hidoyat qidirsang o'qi!

Jahl bir kasallik Kashshof shifodir.

Az-Zamaxshariy Makkadan qaytib kelganidan so'ng 1143 milodiy (538 hijriy) yilda Xorazmning Jurjoniya qishlog'ida vafot etgan.



5. Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar ibn Al-Hasan ibrat-Tamimiy al-Bakriy at-Tabaristoni ar-Roziy bo'lib, laqabi Fahriddin ibn al-Xatib ash-Shofei nomi bilan mashhur. U kishi 1650 milodiy (534 hijriy) tavallud topgan.

Ar – Roziy zamonasining ilmida yagonasi, ko'p ilm to'plab, ko'pchilikni bahramand qilgan ustoz edi. Ulamolar uni tafsir va kalomda aqliy ilmlarda, lug'atda beqiyos bo'lib, butun olamga dovruqi ketgan edi deydi. Uzoq yerlardan uni ziyoratiga va ilmidan bahra olishga keluvchilar ko'p edi.

Faxriddin ar-Roziy umrining ko'p qismini Xorazmda o'tkazgan. Ar-Roziy avval otasi, Ray shahrining xatibi nomi bilan tanilgan Ziyouddindan, keyin esa Al-Kamol as-Sam'oni, al-Majd al-Jilyiy va boshqa ko'p ulamolardan ta'lim o'rgangan.

U ham arab tilida, ham ajam tilida ma'ruza qilish bilan shuhrat topdi. Uning ma'ruzasi shunday ta'sirli ediki, butun eshituvchilar, xattoki o'zi ham yig'lardi.

Ar-Roziy turli mavzularda juda ko'p kitob yozgan, uning kitoblari ko'p mamlakatlarga tarqalgan.

Uning yozgan kitoblaridan eng muhim bo'lganlari quyidagilar:

1. "Mafotih al-g'oyb" tafsiri
2. "Tafsiru sura al-Fotiha"
3. "Al-Matolib al-oliya"
4. "Kitob al-bayon val-Burhon" kabi va boshqa sohalarda ham ko'plab kitoblar yozgan.

Ar-Roziyning "Mafotiyhul-g'ayb" nomli tafsiri sakkiz jilddan iborat. U nashr etilgan. Ulamolar orasida qo'lma-qo'l bo'lgan mo'tabar asardir.

Ammo ibn Qoziy Shabxaning aytishicha, ar-Roziy mazkur tafsirni tugata olmagan. "Ar-roziy tafsirini qaysi joyida to'xtagan? Uning tafsirini kim nihoyasiga yetkazgan? degan savol tug'iladi.

Ibn al-Hajar al-Asqaloni "Ad-durar al-Kamina fiy a'yon al-liatis-Somina" kitobida shunday yozadi: "Fahriddin ar-Roziyning tafsirini nihoyasiga yetkazgan odam Ahmad ibn Muhammad ibn Abul-hazm Najmiddin al-Mahzuniy al-Qumuliy al-Misriydir. U xijriy 727 yilda vafot etgan Qozil-quzot Shahobiddin ibn Xalil al-Xiva'iy ad-Damashqiy ham Ar-Roziy tafsirining qolgan qismini oxirigachi yetkazgan. U hijriy 639 yili vafot etgan".

"Kashf az-zunun"ning guvohlik berishicha, Fahriddin ar-Roziy o'z tafsirini "Al-Anbiyo" surasigacha yetkazgan. Ibn Xallikon uning tafsirida shunday degan: "Ar-Roziy o'z tafsirida ko'p ajoyibotlar jamlagan. Ar-Roziy tafsirida oyatlarning va suralarning o'zaro bog'liqligi va munosabati to'g'risida bir necha dalillar keltirgan".

Muallifning ilohiyot baxslaridagi barcha raddiyalari aqliy dalillarga asoslangan bo'lsa ham, bu boradagi ahli sunnat mazhabidan chetga chiqmagan. Ar-Roziy bir e'tiqodli sunniy sifatida kalom masalalarida Ahli sunnaning e'tiqodini qattiq himoya qiladi va fursat yetti deguncha mu'taziliylarning e'tiqodlarini gapirib, ularga raddiya berishga shoshiladi.

Ar-Roziy Qur'oni karimning biror hukm oyatini tafsir qilarkan albatta bu haqda barcha fuqarolarning mazhablarini keltiradi. Shuningdek, tafsirida usuliy, nahviy balog'iy masalalar ham keng yoritilgan ammo olam va tabiat hamda kalom ilmlariga shu darajada keng o'rin berilgan. Umuman muallifning asari juda yuqori darajada yozilgan. Ar-Roziy 1722 milodiy (606 hijriy) yilda Ray shahrida vafot etgan. Uning vafoti haqida shunday rivoyat mavjud ya'ni Ar-



roziy bilan Rofiziylar al-Karromiyya firqasi o'rtasida qattiq ixtiloflar bor edi. Bu ixtilof adovatga aylandi va ular ar-Roziyni zaharlab o'ldirdilar.

6. Abu Bakr Najmiddin Doya asli Xorazmda tavnallud topgan bo'lib, Chingizxon bosqini paytida Rum yerida (hozirgi Turkiya hududiga) ketgan. U kishining tug'ilgan yillari haqida aniq ma'lumot yo'q. Najmiddin Doya qalamiga mansub "At-Ta'vilot an-Najmiya" tafsiri besh jildidan katta bo'lib, uning to'rt jildi Najmiddin Doya tarafidan yozilgan. "Zoriyot" surasining 17-18 oyatlariga kelganida muallif vafot etgan.

Tafsirni beshinchi jildi Najmiddin Doya tafsiriga taklima bo'lib uni Aloud-Davla as-Samnoniy nihoyasiga yetkazgan. Tadqiqotchi olimlarning fikrlariga qaraganda tafsirning Najmiddin Doya tarafidan yozilgan qismi juda tushunarli oyatlardan zohir bo'ladigan ishoralar aniq, fikr lo'nda ifoda etilgan. Aloud-Davla as-Samnoniy tarafidan yozilgan taklima esa falsafa bilan aralashtirib yuborilgan.

Shunga qaramay mazkur tafsir ishoniy g'oliy tafsirlarning eng komili, tushunish oson bo'lganidir. Najmiddin Doya 1332 milodiy (654 hijriy) yilda Bog'dodda vafot etgan.

7. An-Nasafiy. To'liq nomi Abul Barakot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud an-Nasafiy al Hanafiy bo'lib, mutaaxxir zohidlardan va mo'tabar imomlardan biridir. Bu zotning tavalludlari to'g'risida tarixiy manbalarda ma'lumot keltirilmagan. Uning benazir faqih va hadis hamda Qur'on ilmlarida mohir bo'lganligi kitoblarda zikr etilgan. Ko'pchilik olimlar singari an-Nasafiy ham fiqh va usulul fiqh ilmlarida asarlar yozgan. U tasnif etgan kitoblar orasida far'iy masalalar borasidagi "Matnul vofiy" va uning sharhi "Al-Kofiy" fiqh haqidagi "Kanz ad-Daqoiq" va tafsir borasida "Madorik at-tanzil va haqoiq at-ta'vil" nomli tafsiri eng muhim va mo'tabar asarlaridir.

Uning tafsiri ulamolar orasida mashhur kitoblar qatorida turadi. Muallif o'z tafsirida mutavotir yetti qiroat va ularning qurrolari haqida batafsil bayon qilgan. An-Nasafiyning mazkur tafsiri to'rt jildli qilib nashr etilgan. Hozirda u ulamolar orasida qo'lma-qo'ldir.

An-Nasafiy tafsirini Al-Bayzoviy va Az-Zamaxshariyning tafsirlaridan qisqartirib olingan. Lekin muallif "Kashshof"dagi mo'tazila e'tiqodiga muvofiq masalalarni chiqarib tashlab ularni "Ahli sunna" e'tiqodiga mos ravishda yozgan. Bu tafsir o'rtacha hajmda bo'lib, unda qiroatlar, e'rob yo'nalishlari bilan birga "Kashshof"dagi balog'iy nuqtalar, go'zal iboralar, nozik ma'nolarni kashf qilish kabi fazilatlar jamlangan. An-Nasafiy hijriy 1379 milodiy (701 hijriy) yilda vafot etgan. Bakristonning Ayzaj shahriga dafn etilgan.

8. Ash-Shayx Kamoliddin Abul G'anoim Abdurazzoq Jamoliddin al-Koshiy as-Samarqandiy. Uning tug'ilgan yili haqida ma'lumot aniq emas. Muallif "Ta'vilot al-Koshiy" nomi bilan mashhur bo'lgan tafsir yozgan. Bu tafsir alohida ikki mujallad holda yozilgan. Ba'zi olimlar mazkur tafsirni Ibn Arabiyga nisbat beradilar. Lekin ulamolar ushbu tafsirni Abdurazzoq al-Koshiyniki ekanligini tasdiqlaydilar.

Barcha qo'lyozmalarda bu tafsir al-Koshoniyya nisbat berilgan. "Kashf az-Zunun" sohibi "Ta'vilot al-Koshoniyy" nomi bilan mashhur bo'lgan "Ta'vilot al-Qur'on" nomli tafsir ahli tasavvuf istilohi bo'yicha "Sod" surasigacha yozilgan bo'lib, uning muallifi Abdurazzoq al-Koshiydir deb yozadi. Bu tafsirning boshi "Allohga hamd bo'lsin, ul zot Kalomining nazmini go'zal sifatlarini mazxari qildi" degan jumla bilan boshlanadi.

Al-Koshoniyyning "Ta'vilot al-Qur'on" tafsiri nazariy tasavvuf tafsiri bilan ishoriy tafsirni o'zida mujassam qilgan.



Koshoniyning tafsir qilish uslubidan ko'rinib turibdiki, uning tasavvufiy qarashlari Ibn Arabiy ta'limoti bilan hamohangdir. Tafsirni qolgan qismi ya'ni "Sod" surasidan Qur'oni karimning oxirigacha bo'lgan taklima muallifi noma'lumdir. U kishi 1408 milodiy (730 hijriy) yilda vafot etgan.

9. Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Sura Abu Muso ibn Az-Zahhok as-Sulamiy at-Termiziy 824 milodiy (209 hijriy) yilda Termizning Bug' qishlog'ida tavallud topgan ulug' muhaddis olimdir.

Abu Iso at-Termiziy tafsir sohasida ham ish olib borgan "Al-jome' as-Sahih" yoki "As-sunan" asarida "Kitob fazoil al-Qur'on", "Kitob al-qiroat" va "Kitob tafsir al-Qur'on" boblarini keltirib unda tafsigra oid rivoyatlarni bayon qilgan. Ayniqsa, asarning "Kitob at-tafsir al-Qur'on" bobida Quro'onning barcha suralari an'anaviy tartibda "Fotiha" surasidan "An-Nas" surasigacha berilgan va ularning fazilatlarini haqida hadislardan keltirgan.

At-Termiziy 892 milodiy (279 hijriy) yilda Termizda vafot etganlar.

10. Turkiy tafsir. Qur'oni karimning noma'lum muallif tomonidan yaratilgan bu asar XII-XIII asrlarga oid bo'lib, o'sha davrda joriy bo'lgan sof turkiy jumla qurish qoidalariga rioya qilib yozilgan bu tafsir ustida sharqshunos olimlar tadqiqot olib borgan. O'zbek olimlaridan bu masalani fidoyilarcha ko'tarishga jazm etgan filologiya fanlari doktori professor Qozoqboy Mahmudovni alohida nomlash lozim. Qozoqboy Mahmudov turkiy tafsigra yozgan kirish so'zida bu tafsirni ma'lumotni bergan.

Uning tasavvuriy qarashlari Ibn Arabiy ta'limotlari bilan hamohangdir. Tafsirning qolgan qismi ya'ni, "Sod" surasidan Qur'oni karimning oxirigacha bo'lgan shaklda muallifi noma'lumdir. Rossiya fanlar akademiyasining sharqshunoslik institutini Sankt Peterburg bo'limida saqlanayotgan "Turkiy tafsir" 1914 yili Qarshidan topilgan. Q. Mahmudov mazkur tafsirni hozirgi zamon o'zbek tiliga o'girib katta ilmiy tadqiqot mavqe'ini egallaydigan so'zi bilan nashrga tayyorlagan. Bundan tashqari Abu Muhammad Abdulloh at-Tamimiy ad-Dorimiy, Abu Nasr al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino va boshqa ko'plab mufassirlar Movoraunnahr va Xuroson mintaqalaridan yetishib chiqqan. Va yana Movarounnahrda "Itqon", "Tafsiri No'moniy", "Tafsir Tibyon", "Tafsiri Mavlono Charxiy" kabi mahalliy tillarda ta'lif qilingan ko'plab tafsirlar mavjud. Ular tojik, o'zbek, tatar va boshqa tillarda yozilgan.

Yuqorida keltirilgan mufassirlar kitoblari hozirgi vaqtda O'zbekistonning kutubxona va muzeylarda mavjuddir jumladan, O'zbekiston musulmonlari diniy idorasi qoshidagi kutubxonalarida bor.

References:

1. Abul-Barakot Nasafiy. Madorikut-tanzil va haqiqut-tavil. O'zR FA ShI qo'lyozmalar fondi, inv. № 2583/I. –S. 1b.; Abul-Barakot Nasafiy. Al-Kofi sharhul-Vofi. O'zR FA ShI qo'lyozmalar fondi, inv. № 3110/I. –S. 1b.
2. Abdulhay Laknaviy. Al-Favoid al-bahiya.
3. Shamsiddin Zahabiy. Siyar alom an-nubalo. J-23.
4. Maqsudov D. Abul-Barakot Nasafiyning tafsirilmida tutgan o'rni: Tar. fan. nom. ... diss. avtoref. – T.: TIU, 2008.
5. Hoji Xalifa. Kashfuz-zunun. – Istanbul: al-Olam nashriyoti, – J. II.
6. Ahmad ibn Abu Said Hanafiy Siddiqiy. Nurul-anvor fi sharhil-Manor.



7. Mavlono Toshko'prizoda. Tabaqot al-fuqaho. –S. 113; Abd al-Hay al-Laknaviy. Al-Favoid al-bahiya.
8. Zayn ad-din Qosim ibn Qutlubug'a. Toj at-tarajim fi tabaqot al-hanafiya.